

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафазль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳира Муқимжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHATLARI.....	30
5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	51
8. Jiyanmuratova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY OMILLARI.....	88
13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93

14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Turanazarov Umid,

Toshkent harbiy okrugi boshqaruv apparati
polkovnik, mustaqil tadqiqotchi

KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800154>

ANNOTATSIYA

So'nggi yillarda kasb-hunar ta'limida tizimli o'zgarishlar ro'y bermoqda: yangi ta'lim paradigmalari va tushunchalari paydo bo'lmoqda, ta'lim mazmuni yangilanmoqda, kompetensiyaga asoslangan yondashuvga xos yangi avlodning davlat ta'lim standartlari amalga oshirilmogda. Ushbu maqolada bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosini majmuaviy o'rganish orqali ularning kasbiy kompetentligi va uning rivojlanishi tendensiyalari fenomenini o'rganish muammolari ochib berilgan. Muammoning chuqurlashgan holda tadqiq qilinishi, metodologiya va nazariyadan harbiy ofitserlarning kompetentli modeliga asoslangan harbiy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartlarini yaratishga o'tilishi o'ziga xos ahamiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya tushunchasi, kasbiy ko'nikma, kasbiy malaka, pedagogik, tadqiqot, harbiy mutaxassisning kasbiy kompetentligi, trening.

Тураназаров Умид,

Аппарат управления
Ташкентского военного округа
полковник, независимый соискатель

СУЩНОСТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

В последние годы в профессиональном образовании происходят системные изменения: возникают новые образовательные парадигмы и концепции, обновляется содержание образования, внедряются государственные образовательные стандарты нового поколения, характерные для компетентностного подхода. В данной статье раскрываются проблемы изучения феномена их профессиональной компетентности и тенденций ее развития через комплексное исследование проблемы развития профессиональной компетентности будущих офицеров. Углубленное изучение проблемы выявило важность перехода от методологии и теории к созданию государственных образовательных стандартов военно-профессионального образования на основе компетентной модели офицеров.

Ключевые слова: компетентность, профессиональные навыки и квалификация, педагогические исследования, профессиональная компетентность военного специалиста, подготовка.

Turanazarov Umid,
Management apparatus
of the Tashkent military district
colonel, independent researcher

ESSENCE OF PROFESSIONAL COMPETENCE AND FACTORS OF DEVELOPMENT

ABSTRACT

In recent years, systemic changes have been taking place in vocational education: new educational paradigms and concepts are emerging, the content of education is being updated, and state educational standards of a new generation, characteristic of the competency-based approach, are being introduced. This article reveals the problems of studying the phenomenon of their professional competence and trends in its development through a comprehensive study of the problem of developing the professional competence of future officers. An in-depth study of the problem, a transition from methodology and theory to the creation of state educational standards for military professional education based on a competent model of officers, have been revealed. In this article acknowledging the issues of developing tendency phenomenons through learning the future officers professional competences is highlighted. An in-depth study of the problem revealed the importance of the transition from methodology and theory to the creation of state educational standards for military professional education based on a competent model of officers.

Key words: competence, professional skills and qualifications, pedagogical research, professional competence of a military specialist, training.

KIRISH

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to'la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o'zgarishga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutahassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurutuvchi shaxsni shakillantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Kompetentli yondashuv g'oyasi kasbiy ta'limni modernizatsiya qilishning ehtimoliy yo'nalishlarini belgilash chog'ida xorij amaliyotidan o'zlashtirilgan bo'lib, o'tgan asrda pedagoglar kompetensiya va kompetentlik atamalarini turlicha talqin etishgan. Ingliz tilida competence kontekstdan kelib chiqib quyidagilarni anglatadi: qobiliyat, ko'nikma; kompetentlik; kompetensiy. Ba'zi tadqiqotchilar kompetentlik va kompetensiya tushunchalarini o'zaro tenglashtiradilar, ya'ni ular aynan bir ma'no beradi deb hisoblashadi, boshqa bir tomon esa ulardagi tafovutni mavhumroq ta'rif beradilar, uchinchi bir guruh esa bu tushunchalarni bir biridan farqli holda tavsiflaydilar. Mazkur tushunchalarni o'rganish uchun qo'shimcha adabiyotlar va pedagogik tadqiqot ishlari tahlili kompetentlik atamasi tayyorlangan mutaxassisning kasbiy kompetentligi bilan bog'langanligini ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Kasbiy kompetensiya fenomeni ko'plab olimlarning (V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanov, O.G.Krasnoshlykova, O.A.Kozyreva, M.I.Lukyanova, asarlarida ko'rib chiqilgan. E.F.Zeer, A.K.Markova, E.M.Nikitina, V.I.Zagvyazinskiy, V.N.Lebedev, O.A.Bulavenko, E.N.Bondarenko, V.A.Metaeva, N.L.Solyankina, N.V.Kuzmina, S.A.Drujilov, Ya.I.Kuzminov, V.L.Matrosov, V.D.Shadrikov [1] va boshqalar). Ushbu tushunchaning ta'riflari ham mahalliy, ham xorijiy pedagogik adabiyotlarda berilgan.

Kompetensiya ta'lim qiymati sifatida (N.S.Rozov), har qanday darajadagi muammolarni hal qilishda faollik o'lchovi sifatida (I.A.Kolesnikova), kelajakka tayyorlik sifatida (E.A.Klimov), ajralmas shaxsiy ta'lim sifatida (E.I.Balakireva [2]) qaraladi.

Harbiy ta'lim atamashunosligida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari mavhum ifodalangani bois bu davrda harbiy-kasbiy kompetentlik kabi tushunchalar uchramaydi. A.I.Kadosnikov fikricha, harbiy-kasbiy tayyorgarligi singari tushunchalar mavjud bo'lib, bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosini o'rganish dolzarb hisoblanadi [3].

ASOSIY QISM

O'tgan asrning oxirlarida kasbiy kompetentlik komponentlari, uning ma'nosi hamda oliy harbiy ta'lim sharoitida rivojlanish jarayonining alohida aspektlariga aniqlik kiritildi. Huddi shu davrda kasbiy yo'nalish tavsifiga ega bo'lajak harbiy ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni alohida aspektlarini o'rganish boshlandi. O'rganish natijalariga ko'ra oliy harbiy ta'limning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini ta'minlash uchun harbiy tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan [4].

XXI-asrda esa kompetentli yondashuv rivojlanishining barcha tomonidan oliy harbiy ta'limning ixtiyoriy natijasi sifatida qarab chiqilishi kerak bo'lgan kompetensiyalar majmuini ajratib olish bilan tavsiflanadi. Ta'lim tayanishi mumkin bo'lgan to'rt ustun: bilishni o'rganish, bajarishni o'rganish, birgalikda yashashni o'rganish, hayot kechirishni o'rganish tahlil qilib berilgan. Mohiyatan asosiy global kompetentliklar belgilab berilib, kompetentlik tushunchasi salmog'iga malaka tushunchasi ham kiritilgan [5].

Bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosini majmuaviy o'rganish orqali ularning kasbiy kompetentligi va uning rivojlanishi tendensiyalari fenomenini o'rganish amalga oshiriladi. Bo'lajak ofitserning kasbiy kompetentligini bir nechta turlari mavjud bo'lsada biroq ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy- tadqiqot ishlari, kasbiy kompetentlikning mohiyati, komponentli tarkibiy qismlar, kompetensiyalarni rivojlanish jarayonini modellashtirishga doir tadqiqot ishlari, harbiy- amaliy tayyorgarlik jarayonida modelning samarali ishlashini ta'minlovchi pedagogik va didaktik shart-sharoitlar tadqiq etilmagan [6].

Kasbiy kompetentlik muammosini bir xil tushunish va kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini tadqiq yetish uchun kompetensiya, kompetentlik, harbiy tayyorlik, oliy habiy kasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetentlik, qobiliyat kabi izohlanish talab qiluvchi tushunchalarni tahlil etish zarur bo'ladi.

Tadqiqot ishimizda katta ahamiyat kasb etuvchi kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga alohida e'tibor qaratamiz.

Pedagogikaga oid zamonaviy lug'atlarda kompetensiya tushunchasi (lotinchada *sotpetentia* – huquqiy tomondan mansublik) mansabdor shaxsning vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari doirasi sifatida, kompetentlik esa savodxonlik darajasi, vjudga keluvchi muammolarni mustaqil hal etish uchun yetarli zarur bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisiga ega bo'lish tushuniladi.

Kompetensiya tushunchasini mutaxassisning huquq va majburiyatlar majmuasi, uni hal etishga vakolatli bo'lgan kasbiy masalalar sohasi sifatida ochib berilib, mutaxassisning kompetensiyasi tashkilot yoki korxonaning nizomlari, meyoriy hujjatlari bilan belgilab beriladi hamda lavozim yo'riqnomasida o'z aksini topadi. Bu kasbiy faoliyatni unumdor bajarishga sharoit yaratuvchi xatti-harakatlarning umumlashma usullari hamda insonning o'z kompetentligini amalda ro'yobga chiqarishga qodirligidir. Faoliyatga layoqatli bo'lish - xatti-harakatlar usullari yig'indisi kompetensiya sanaladi [7].

Kompetensiyani faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqilganda, kompetensiya - shunday predmet sohasiki, u haqda individ yaxshi xabardor hamda faoliyatni bajarishga tayyor ekanini namoyon etadi.

Kompetensiya deyilganda inson ongi strukturasiidagi bilimlar komponentlari yig'indisi, kishilik jamiyati a'zosining ijtimoiy ahamiyatli huquq va majburiyatlarini yuzaga chiqarish paytida kasb etadigan ijtimoiy funksiyalar majmuasi ko'zda tutiladi. Kompetensiya va kompetentlik o'rtasida to'g'ridan to'g'ri va aks bog'liqlik mavjud [8].

Kompetensiya mazmuni bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, faoliyatning umumlashma usullari yig'indisi sanaladi [9]. Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarni inobatga olgan holda kompetensiyaga turdosh tushunchasi sifatida o'z kasbiy majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning umumlashgan tizimini qabul qilamiz.

Kasbiy faoliyatda zaruriy kasbiy kompetentlikka erishish bo'lajak ofitserlarning kasbiy ta'limi jarayoniga tegishli bo'lgan tayanch va maxsus kompetensiyalar majmuasini egallashini taqozo etadi, bunda: Tayanch kompetensiyalar – ancha keng qo'llanish spektriga mos keluvchi va barcha tayanch kompetensiyalar – kasbiy faoliyatning asosiy turlarini amalga oshirish uchun negizni

tashkil etuvchi, kasblar guruhiga mansub kompetensiyalar; kasbiy maxsus kompetensiyalar – aniq kasbiy faoliyat turini amalga oshirish uchun zarur tayanch kompetensiyalarga nisbatan xos kompetensiyalar. Ular muayyan kasbga talluqli va mutaxassisning kasbiy kompetensiyalari variativ qismini tashkil etadi.

N.A.Muslimov mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish masalalariga alohida e'tibor qaratgan [10].

O'.Q.Tolipov "Ta'lim tizimda kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari" mavzusida tadqiqot ishlarini olib borib, kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni va uni ta'lim jarayoniga qo'llashning muhim tomonlarini tadqiq qilgan.

S.A.Usmanov tadqiqotida umumkasbiy tayyorgarligini imitatsion model qurilmalari vositasida takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini yaratishga harakat qilingan.

A.I.Avazboyev tadqiqotida o'quv predmetlari mazmunini integratsiyalash asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish masalaciga e'tibor qaratilgan [11] M.J.Toshov esa ta'lim jarayonida pedagogik integratsiyaning mazmuni va tuzilmasini ta'minlash mavzusida tadqiqot olib borgan.

Ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilishning nazariy va tashkiliy-uslubiy asoslari U.I.Inoyatov tadqiqotlarida aks etgan.

Bo'lajak ofitserlar kasbiy kompetentligini rivojlantirish umumkasbiy (harbiy-kasbiy) fanlarni o'zlashtirish jarayonida boshlanadi, shu bois kasbiy bazaviy kompetensiyalar haqida gapirish o'rinli.

Kasbiy tayanch kompetensiyalar – muayyan kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy faoliyatning o'xshash tavsifini o'zida jamlagan kompetensiyalar majmuidir. Ular mutaxassisning maxsus kasbiy kompetensiyalari komponentini tashkil etadi va muayyan kasb yoki kasblar guruhi mutaxassisiga zaruriy tayanch bilim, ko'nikma, malaka, umumlashgan kasbiy faoliyat usullari tizimiga tayanadi.

Olib borilgan psixologik va pedagogik tadqiqot ishlarida kompetensiya va kompetentlik atamalari quyidagicha farqlanadi: kompetensiya – aniq kasbiy yoki funksional tavsiflar majmui, kompetentlik – shaxsga xos tavsif, fazilatni anglatadi. Ushbu bog'liqlikda kompetensiya tushunchasi Qonun, Nizom yoki boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar bilan aniq tashkiliy tuzilmaga yoki mansabdor shaxsga berilgan funksional vakolatlar doirasini kengayishi zarurati paydo bo'lgandagina qo'llanadi. Kompetentlik tushunchasida gap baho haqida bo'lsa, ya'ni tegishli shaxs egallab turgan lavozimiga mosmi yoki yo'q, zimmasiga yuklangan vakolatlarni ro'yobga chiqarishga va funksiyalarni ijro etishga munosibmi yoki yo'qligini aniqlashda ishlatiladi. A.I.Kadochnikov kompetensiya, kompetentlik tushunchalari o'rtasidagi tafovutni quyidagicha sharhlaydi: kompetensiya - muayyan jabhada to'plangan imkoniyatlar, qobiliyat, bilim, ko'nikmalar va malakalar jamlanmasi, kompetentlik esa ushbu sohani egallaganlik darajasi, bevosita subyektning kompetensiyalarni kasb etgani darajasini ko'rsatuvchi xarakteristika.

Kompetentlik tushunchasiga berilgan ta'riflari turfa-xil bo'lgani holda tadqiqotchilardan hech biri munozara qila olmaydigan pozitsiyalar hanuzgacha saqlanib qolgan. Kompetentlik kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladi, bu kasbiy faoliyatdan tashqarida kasbiy kompetentlikning bor yoki yo'qligi haqida faqatgina bilvosita belgilarga ko'ra aniqlanadi. Boshqa tomondan kompetentlikni shaxsning egallangan bilim va tajribasiga asoslangan kasbiy faoliyatga umumiy qobiliyati, tayyorligi va shayligi sifatida tushunish bilan bog'liq.

Mutaxassisning kasbiy kompetentligini uning kasbiy faoliyatni bajarishga qobiliyati darajasini va kasbiy mehnatning ilm-fan yutuqlaridan keng foydalangan holda dinamikasi, oshishi va uning natijalari uchun shaxsiy javobgarlik ortishi sharoitida kasbiy barkamollikka tayyorlik darajasini aks ettiruvchi kognitiv, operatsional-texnologik, motivatsion-irodaviy va kommunikativ tarkibiy qismlar majmuasini o'z ichiga oluvchi to'la bo'lmagan xarakteristika o'laroq ko'rinadi. Kompetentlik shaxsning integrativ sifati - insonning intellektual va shaxsiy shartlangan ijtimoiy-kasbiy hayotiy faoliyati bo'lib, mazkur integrativ sifatning asosi bo'lib bilim, malaka, tajriba, qadriyatlar va shaxsning ijtimoiy-kasbiy faoliyatni amalga oshirishga qobiliyati maydonga chiqadi.

Kompetentlikni shaxs sifatlarining integratsiyalangan xarakteristikasi, muayyan kompetensiyalarda faoliyatni bajarish uchun bilim yurti bitiruvchisini tayyorlash natijasi sifatida ham ko‘riladi. (Kompetentlik – situativ kategoriya, negaki u aniq kasbiy muammoli vaziyatlarda qandaydir faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik holatida) namoyon bo‘ladi.

Tahlillar asosan, kompetentlik deyilganda shaxsning integrativ sifatini – faoliyatni va uning turlarini samarali bajarishga qobiliyati hamda tayyorligini tushunamiz. Kompetentlik kompetensiyaga yondashuvchi tushuncha hisoblanib va uni o‘z qamroviga qo‘shib oladi.

Keltirilgan fikrlar kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini umumiy holda o‘xshash deb qaramaslik kerakligini tasdiqlashga asos bo‘ladi. Shu bilan birga qayd etishimiz joizki, mazkur tushunchalar orqali tasvirlangan fenomenlar o‘zaro bog‘lanishda bo‘lib, bir vaqtning o‘zida u yoki bu jarayonda namoyon bo‘lishi mumkin.

Kasbiy kompetentlikni yangi vaziyatlarda, sharoitlar tasodifan o‘zgargan bir paytda kasbiy majburiyatlarni bajarish imkoniyatini chamalovchi shaxs xususiyati o‘laroq tavsif etiladi. Ba‘zi tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni kasbiy faoliyatning turli algoritmlarini yuzaga chiqarishga tayyorlik sifatida tavsiflashadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish tushunchasi uning integral qismlari – yaxlitlashtirish harakati integrativ jarayoni sifatida ko‘riladi. Bu jarayon yaxlit rivojlanishiga, ya‘ni natijaga olib keladi.

Harbiy mutaxassisning profессиogrammasi hamda bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan malakaviy talablarning funksional tahlili shuni ko‘rsatdiki, harbiy-kasbiy vazifalar mutaxassisning yetakchi va ustuvor kasbiy vazifalari sanaladi. Ular harbiy xizmat davomida hal etiladi va yuzaga chiqariladi.

Qat‘iy meyorlar bilan tartibga solinadigan kasbiy vazifalarni bajarishning aniqligi, ishonchliligi, xavfsizligi va operativligi ofitser faoliyati muvaffaqiyatli ekanini, ya‘ni uning kompetentligini tavsiflovchi asosiy belgi-alomatlar sanaladi.

Kasbiy kompetentlik tarkibiga motivatsion, kognitiv, qadriyatli, emotsional-irodaviy kabi komponentlar kiradi. Kasbiy kompetentlik kognitiv, operatsional-texnologik, motivatsion- qadriyatli, axborotli va kommunikativ komponentlarning majmuidir. Kasbiy kompetentlik tarkibiga kognitiv, motivatsion-qadriyatli va emotsional-irodaviy komponentlari kiritilgan. Kompetentlikning bu taxlit mazmuniy salmog‘i unda kasbiy kompetentlikning bizga kerakli turi kompetentligini rivojlantirish jarayonini qurish uchun umuman yetarli emas.

Sohaga tegishli mashg‘ulotlar – kasbiy ko‘nikma va malakalarni egallash, mustahkamlash va takomillashtirish maqsadida yo‘l-yo‘riqlar, xatti-harakatlar va mashqlarni ko‘p bora takrorlash metodidir [12].

Yuqorida qayd etib o‘tilgan tushunchalar kasbiy amaliy tahsilning bir turi sifatida talqin etiladi. Ushbu tahsil jarayonida trenirovka, mashq metodi, shuningdek, ularning kompleksi – harbiy-amaliy dan foydalanib, shu jumladan, tahsilning turli texnik vositalarini qo‘llab maxsus kasbiy malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Harbiy-kasbiy tayyorgarlikni olib borish imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- kasbga xavfsiz o‘qitishga va yuqori qiyinlik darajasida harbiy kasbiy kompetentligini rivojlantirishga;
- bo‘lajak kasbiy faoliyatning shartlariga o‘xshashlikning yuqori miqyosini imitatsiya qilish, shu orqali kursantning bilim olish faoliyatini faollashtirishga;
- tahsilni yuqori mustaqillik darajasi, bo‘lajak ofitserlarning individual qobiliyatlarini hisobga olib tashkil etishga.

Davlat ta‘lim standarti (DTS) malaka talablariga mos harbiy mutaxassislarni tayyorlash mazmunini loyihalashtirishda kompetentli-kvalifikatsion model asos hisoblanadi, bo‘lajak ofitserni tayyorlash mazmuni kompetensiyalar orqali yozib qayd etiladi. Buning ustiga kompetensiyalar integral-yaxlit tuzilmaga ega bo‘lishi kerak. Kompetensiya – integrativ tavsif bo‘lib, bo‘lajak ofitserni kasbiy faoliyatga tayyorgarligining o‘zgaruvchan sharoitlarida bilimi va malakasini mustaqil qo‘llashga tayyorligida ifoda etiladi.

XULOSA

Bo'lajak ofitserlar kasbiy faoliyatini amalga oshirishga imkon beruvchi va uni yuzaga chiqarish jarayonini kompetentligini rivojlantirish deb, ta'kidlash mumkin. Kasbiy kompetentligini rivojlanishi bo'lajak ofitserlar tarkibini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida sodir bo'ladi. Ushbu tayyorgarlik nazariy va amaliy tahsilni o'z ichiga oladi. Amaliy tahsil ikki turdan iborat bo'lib, bo'lajak ofitserlik kasbiga o'qitish va harbiy tayyorgarlig o'z ichiga oladi. Trening – bilim olishning o'ziga xos metodi bo'lib, o'z muqobillaridan shu bilan farq qiladiki, uning barcha ishtirokchilari hozirgi lahzaning shaxsiy tajribasi asosida o'qiydi. Bu maxsus yaratilgan muhit bo'lib, unda har kim osonlik bilan o'z ijobiy va salbiy jihatlari, yutuqlari, kamchiliklari va nuqsonlarini ko'rishi mumkin. Atrofdagi insonlarning yordami va diqqati qanday shaxsiy va kasbiy muhim sifatlar zarur va qaysilarini rivojlantirish kerakligini tezroq tushunishga yordamlashadi. Trening vaziyati mazmuniy jihatdan kasbiy bo'lgani tufayli ishtirokchilarning hech biri shakllangan munosabatlar va qarashlar bilan tavakkalchilikka qo'l urmaydi, aksincha yangi tajriba orttiradi va uni qo'llaydi.

Real kasbiy vaziyatda shunga o'xshash tajriba va amaliyotlar kutilmagan oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ta'lim jarayonida har qanday ko'nikma yoki malakalar aniq vaziyatda modellashtiriladi va tahlil qilinadi hamda maksimal darajada reallikka yaqinlashtirilgan tajribaviy holatida tekshirib ko'riladi. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyati normativ-huquqiy intizomiy qoidasiga rioya etishga va rahbariyatning talablari va qoidalarni beqam ko'st bajarish majburiyatini yuklaydi, negaki bu o'qitish xavfsizligini ta'minlaydi, kursant oldida turgan muammoli o'quv-kasbiy vazifalarning darajasi va real ko'lam esa shakllangan kasbiy kompetentligining ancha yuqori darajasini egallashni majburiy talab qiladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Балакирева Е.И., Малышева А.В. Профессиональная компетентность: сущностные характеристики и условия развития. – М., 2015.
2. Балакирева Е.И., Малышева А.В. Профессиональная компетентность: сущностные характеристики и условия развития. – М., 2015.
3. Кадочников А.И. Формирование навигаторской компетентности курсантов в процессе подготовки: дис. канд. пед. наук: Челябинск. 2009. – 209 с; Междисциплинарная интеграция, как условие эффективного формирования навигаторской компетентности // Образование и наука. Известие Уральского отделения Российской академии образования. – Екатеринбург, 2008. – 51 с.
4. Кадочников А.И. Формирование навигаторской компетентности курсантов в процессе подготовки: дис. канд. пед. наук: – Челябинск, 2009. – 209 с.
5. Алимардонов З.Ш. Олий ҳарбий таълим муассасаларида бўлажак офицерларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш. Пед.фан.номз. дисс. Автореферати. – Самарқанд. 2019. – 53 б.
6. Кадочников А.И. Формирование навигаторской компетентности курсантов в процессе подготовки: дис. канд. пед. наук:– Челябинск, 2009. – 209 с.
7. Давидов В.В. Развивающие обучение. – М, 1996. – 168 с.
8. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе / Педагогика. – М., 2003. – № 10. – С. 3-7.
9. Добрынин И.М. Формирование компетентности у курсантов образовательных учреждений противопожарной службы: дис. канд. пед. наук: – Нижний Новгород. 2009. – 181 с.
10. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий ривожлантиришнинг назарий-методик асослари. Пед. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2007. – 349 б.
11. Авазбоев А.И. Ўқув предметлари мазмунини интеграциялаш асосида меҳнат ва касб таълим ўқитувчиларини тайёрлашни такомиллаштириш: Пед.фан. ном.дисс. – Тошкент, 2001. – 202 б.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RIILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000